

QASHQADARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-iyul*



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. (75)221-44-28**

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6471 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 17 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6454 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 12653,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 108,2 % ga o'sish ta'minlandi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 585,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 104,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 10418,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1649,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,0 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	12 653,3	108,2
Qarshi sh.	2 602,0	108,4
Shahrisabz sh.	1 156,4	108,9
G'uzor	553,8	111,0
Dehqonobod	437,5	106,2
Qamashi	943,2	106,8
Qarshi	498,6	106,9
Koson	1 096,9	108,7
Kitob	682,5	109,1
Mirishkor	465,9	106,8
Muborak	380,7	107,1
Nishon	524,5	108,9
Kasbi	565,8	106,7
Ko'kdala	448,9	110,6
Chiroqchi	1 114,6	107,0
Shahrisabiz	474,6	112,8
Yakkabog'	707,3	106,3


2024- yilning yanvar-iyul oylarida 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan viloyatning Shahrisabz (112,8 %), G'uzor (111,0 %), Ko'kdala (110,6 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-iyul)




So'ngi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,6 % ni tashkil qildi.

2023- yil va 2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-iyul oylarida o'sish sur'ati 108,2 % ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 20,6 % bilan 2602,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Muborak tumani 3,0 % bilan 380,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-iyul oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra- 10418,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 8,6% ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 82,4 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 104,3 % ga ko'paydi va 585,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,6 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Muborak (99,6 %) Mirishkor va Nishon (99,3 %) va Qarshi va Kasbi (99,2 %), Qamashi (99,1%) Dehqonobod (99,0%) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz tumani (15,6 %), Qarshi shahri (10,8 %), Ko'kdala (6,8 %) va Koson (5,7 %) tumanlarida kuzatildi.

4,6 %

95,4 %

 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*




2024- yilning yanvar-iyul oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3537,0 ming so'mni (2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 105,8 %) tashkil etdi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-iyul), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	1 649,1	107,0
Qarshi sh.	126,4	103,1
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	48,2	108,1
G'uzor	97,6	107,5
Dehqonobod	51,4	104,8
Qamashi	114,5	108,0
Qarshi	30,1	108,5
Koson	78,0	108,8
Kitob	92,9	107,5
Mirishkor	14,6	107,9
Muborak	84,5	118,0
Nishon	98,8	114,1
Kasbi	36,5	83,9
Ko'kdala	164,3	106,9
Chiroqchi	475,2	107,5
Shahrisabz	51,4	103,6
Yakkabog'	84,7	104,6


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-iyul)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar- iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1649,1 mlrd.so'm-ni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 107,0 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 709,1 mlrd. so'm-ni (109,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 940,0 mlrd so'mni tashkil etdi (107,9 %).













2024- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 709,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (397,6 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 397,6 mlrd. so'm  55,9 %	Non va non mahsulotlari 111,7 mlrd. so'm  15,6 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 31,9 mlrd. so'm  4,5 %
Tovuq go'shti 49,4 mlrd. so'm  6,8 %	Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 15,7 mlrd. so'm  2,2 %	Tuxum 18,8 mlrd. so'm  2,5 %
Ziravorlar 31,3 mlrd. so'm  5,1 %	Sut va sut mahsulotlari 22,2 mlrd. so'm  3,1 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 6,6 mlrd. so'm  0,9 %
Tuzlamalar 7,2 mlrd. so'm  1,1 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 5,1 mlrd. so'm  0,7	Nooziq-ovqat tovarlar 11,6 mlrd. so'm 1,6 %

2024- yilning yanvar-iyul oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 940,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 654,3 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 241,6 mlrd. so'mni, otlar – 37,6 mlrd. so'mni, parrandalar – 6,5 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>417,4 mlrd. so'm</p>  <p>44,4 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>180,5 mlrd. so'm</p>  <p>19,2 %</p>	<p>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>56,4 mlrd. so'm</p>  <p>6,0 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>143,8 mlrd. so'm</p>  <p>15,3 %</p>	<p>Otlar</p> <p>37,6 mlrd. so'm</p>  <p>4,0 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>97,8 mlrd. so'm</p>  <p>10,4 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,9 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>5,6 mlrd. so'm</p>  <p>0,6 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1478 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1476 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	338,1	107,7
Qarshi sh.	116,3	115,8
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	26,0	119,5
G'uzor	14,2	93,6
Dehqonobod	7,5	89,6
Qamashi	7,3	124,3
Qarshi	17,0	150,1
Koson	13,1	121,6
Kitob	32,4	104,5
Mirishkor	4,7	112,4
Muborak	20,3	64,7
Nishon	32,3	116,2
Kasbi	7,4	81,3
Ko'kdala	6,4	132,9
Chiroqchi	13,4	106,7
Shahrisabz	8,5	132,6
Yakkabog'	11,4	87,0

2024- yilning yanvar-iyul oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 338,1 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Viloyat bo'yicha	2 008,6	105,5
Qarshi sh.	1 731,4	99,7
Shahrisabz sh.	6,8	116,4
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	2,4	166,4
Dehqonobod	3,5	115,3
Qamashi	1,1	139,8
Qarshi	169,1	201,6
Koson	8,5	115,7
Kitob	15,1	112,3
Mirishkor	5,8	118,4
Muborak	5,9	119,9
Nishon	8,9	120,8
Kasbi	17,0	358,6
Ko'kdala	1,9	140,3
Chiroqchi	17,1	109,2
Shahrisabz	0,4	110,4
Yakkabog'	13,7	105,9


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (1731,4 mlrd. so'm), Qarshi (169,1 mlrd. so'm) Chiroqchi (17,1 mlrd. so'm) va Kasbi tumanlari (17,0 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-iyul oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 2008,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,5 foizga os'di. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1072,1 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 33,8 foizga ko'paydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 939,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 84,9 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3447,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,3 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi hajmi statistik hisoblarga qaraganda 3051,3 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,0 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,5 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2144 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 7 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2137 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori hajm ega yirik korxonalar Qarshi shahri (1619,0 mlrd. so‘m), Shahrisabz shahri (344,4 mlrd. so‘m), Qarshi (291,2 mlrd. so‘m) va Koson tumanlarida (200,7 mlrd. so‘m) qayd etildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo‘yicha	3447,6	106,3
Qarshi sh.	1619,0	115,9
Shahrisabz sh.	344,4	120,1
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	103,7	104,6
Dehqonobod	20,8	129,4
Qamashi	175,4	250,9
Qarshi	291,2	103,7
Koson	200,7	66,8
Kitob	183,2	99,7
Mirishkor	49,0	51,7
Muborak	62,1	117,1
Nishon	36,0	58,2
Kasbi	60,0	47,8
Ko‘kdala	8,3	67,1
Chiroqchi	81,5	70,7
Shahrisabz	66,0	83,6
Yakkabog‘	146,4	214,2